

OMON MUXTOR ROMANLARIDA NASR VA NAZM UYG‘UNLIGI

O‘zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati

Guliston davlat universiteti “Adabiyotshunoslik” yo‘nalishi tayanch doktoranti

Yuldasheva Umida

OMON MUXTOR ROMANLARIDA NASR VA NAZM UYG‘UNLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada epik va lirik tur haqida ilmiy mulohazalar berilgan.

Omon Muxtorning shoir va adib sifatidagi iste’dodi, nazm va nasrni uyg‘unlashtira olish qobiliyati ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada Omon Muxtorning “To‘rt tomon qibla”, “Ayollar mamlakati va sultanati” romanlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Adabiy turlar, lirik tur, epik tur, dramatik tur, nasr, nazm.

ГАРМОНИЯ ПРОЗЫ И ПОЭЗИИ В РОМАНАХ АМОН МУХТОР

Абстрактный. В данной статье представлены научные комментарии к эпико-лирическому жанру. Показан талант Амона Мухтара как поэта и писателя, его умение сочетать поэзию и прозу. В статье анализируются романы Амона Мухтара «Четыре Тан Кибла», «Страна женщин и королевство».

Ключевые слова. Литературные типы, лирический тип, эпический тип, драматический тип, проза, стих.

THE HARMONY OF PROSE AND POETRY IN THE NOVELS OF AMON MUKHTOR

Abstract. This article provides scientific comments on the epic and lyric genre. Amon Mukhtar's talent as a poet and writer, his ability to combine poetry and prose, have been shown. The article analyzes Amon Mukhtar's novels "Four-Tang Qibla", "The Country of Women and the Kingdom".

Keywords. Literary types, lyrical type, epic type, dramatic type, prose, verse.

Adabiyot sohasi uch katta turdan iborat bo‘lib, ular epik, lirik va dramatik turlardir. “Voqealarni keng hikoya qilishga asoslangan adabiy asarlar guruhiga epik tur va epos (yunoncha epos – rivoya, hikoya, so‘z, nutq) deb ataladi” [1-460]. Epik turda voqeahodisa yetakchilik qiladi. Hikoya, novella, qissa, roman kabilar shular jumlasidandir.

“Lirika (yunon. Lyricos – lira jo‘rligida kuylash) – badiiy adabiyotning asosiy turlaridan biri bo‘lib, biror hayotiy voqeahodisa ta’sirida inson qalbida tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali voqelikni aks ettiradi” [1-477]. Lirika – bu she’riyatdir

“Dramaning tasvir predmeti – harakat (sodir bo‘layotgan voqeal), unda obyektning plastik obrazi yaratiladi” [2-261]. Adabiyotning bu turida harakat yetakchi ahamiyatga ega bo‘lib, sahna uchun mo‘ljallangan asarlar mansubdur.

Adabiyotimizda she’riyat va nasrda ham qalam tebratgan, ikkisida ham iste’dodini namoyon qila olgan ijodakorlarimiz talaygina. Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Oybek kabilardir. Zamonaviy adabiyotimizning zabardast vakillaridan biri Omon Mutor ham mana shnday ikkiyoqlama iste’dod egasi edi. U ham adib, ham shoir edi. Omon Muxtoring yana bir yutug‘i bir asarda har ikki iste’dodini baravar namoyon qila olardi. Omon Muxtor asarlari kitobxonni zeriktirib qo‘ymadi. Ularda fantaziyaning yuqori darajadagi ijodkorligidan foydalanilgan. Bu holat mazmrnni ham, shaklni ham yanada murakkab, ammo qiziqarli bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Uning asarlarida nasr va nazm ham aralash holda kelaveradi. Voqealar rivoji nasriy shaklda bayon etilsa, qahramon birdan lirik chekinish qilib his-tuyg‘ularini she’rlarda to‘kib sola boshlaydi. Yozuvchi Erkin Samandar Omon Muxtoring “To‘rt tomon qibla” romani haqidafikr bildirganda quyidagi jumlanı alohida ta’kidlab o‘tadi: “Men o‘zim romanga she’r kiritishdan ko‘p istihola qilaman, nasrga xos bosiqohang buzilishidan cho‘chiyman. Ammo Omon Muxtor uchala romanini ham xuddi bir she’rday yozganki,

qayeri nasr, qayeri nazm – ajralib turmaydi, bari bitta qo'shiqday avjlanib-mavjlanib boravradi. Bu – nosir va shoirning mahoratidan dalolat, jur'atidan nishonadir” [3-8].

Omon Muxtor nasrda qo'llagan nazmiy namunalarni muallifiga ko'ra ikki guruhga ajratishimiz mumkin:

- 1. Muallifning o'z ijod namunalari;**
- 2. Muallifning o'ziniki bo'lmagan she'riy parchalar.**

Muallifning o'z ijod namunalari ko'proq “Ming bir qiyofa” romanida shoir Abdulla Hakim nomi ostida berilgan.

Muallif tomonidan she'riy parchalar qahramon holatiga, ruhiyatiga shu qadar mutanosib tanlanganki, bitta mavzuda – ishq mavzusida, yozilgan she'rlari ham bir-birini sira takrorlamaydi. Ba'zilarida ishqdan sarmast yurak, ba'zilarida sog'inch, iztirob hislari yetakchilik qiladi. Abdulla Hakim otib o'ldirilgandagi halat quyidagicha she'riy va nasriy kompozitsiya bilan berilgan edi:

“U o'zi istamagan, kutmagan holda tiz cho 'kdi. So 'ng yerga ohista cho 'zildi.

Pichirlab faqat birgina so 'z – Halima, dedi...

Yerdan o'zin baland ko 'tarib,

Qaytib yerga urgandek shamol –

Cho 'qqilarni bir qatla ko 'rib,

Nogoh qulab ketdim, oyjamol” [3-31].

Omon Muxtor “Ming bir qiyofa” romaniga 28 ta she'r kiritgan bo'lib, ular o'zining qalamiga mansub edi. She'rlarning ba'zilari to'rtliklar ekanligini aytmasa, deyarli barchasi mustaqil, to'liq she'rlar bo'lib, kamida 12 qatordan iborat. Mavzu jihatidan dil izhori va hijron iztiroblari aks etgan she'rlari katta salmoqqa ega. Shuning bilan bir qatorda ona mavzusidagi she'rlarini ham uchratamiz. Asarning har uchala hikoyatiga ham

she'rlar kirtilgan bo'lib, birinchi qismida Abdulla Hakim Halimaga atab yozgan she'rlarini eslaydi, xotirlaydi. Ikkinci hikoyatda Abdulla Hakimning she'rlarini ishq dardida kuyib yurgan Sadirjon o'qib, Gulxumorni o'ylaydi. Uchinchi hikoyatda esa "Nasriddinining bolaligi" tarzida mustqil shaklda berilgan. Birinchi va ikkinchi hikoyatdagi she'rlar mazmun va shakl jihatida bir-biriga yaqin bo'lib, ko'proq ishq-muhabbat mavzusida, asarning turli o'rinalarida parchalar holatida kiritilgan va qahramoning ruhiy holatini tasvirlaydi. Uchinchi hikoyatda esa "Nasriddin afandi haqida yozgan she'rlardan" turkumi ostida berilgan bo'lib, hamma she'rlar yaxlit holatda uzlusiz uch betda keltirilgan. Mavzusi Nasriddin Afandiga murojaat tarzida bo'lib, Abdulla Hakimning (aslida esa muallifning – izoh bizniki) dunyo haqidagi o'ylari ham o'z aksini topgan. Ba'zida muallif ustozlar she'riyatidan parchalarni o'z holicha ko'chirib qo'llamagan, ularga ishora qlgan holda asarlariga yoki she'rlariga singdirib yuboradi. Ammo u mashhur jumlanı o'qishingiz bilan qaysi ijodkorga ishora ekanligini uqib olasiz. "Ming bir qiyofa" romanining uchinchi hikoyati bo'lgan "Afandining bolaligi"da "Nasriddin Afandi haqida yozgan she'rlar" turkumi berilgan. Undagi quyidagi parcha e'tiboringizni tortmay qo'ymaydi:

"Biz Dunyoni tepgan odammiz, Bilganimiz faqat darveshlik. Garchi yashab, hammadan kammiz, G'ariblarga qilamiz xeshlik" [3-124].

Ushbu satrlarni ko'riboq adabiyotdan ozgina xabari bo'lgan isonning ham xayoliga Boborahim Mashrab keladi, albatta. Boborahim Mashrab hayotida ham, ijodida ham darveshonalik aks etib turardi. U dunyodan "qo'l yuvgan" bir solik banda edi va g'azallarida ham buni ta'kidlab o'tgan. "Mashrab" – "xulq, odat, xislat, xususiyat" ma'nolarini anglaradi. Uning "O'ttum" radifli g'azalida shunday misralar bor:

"Dunyo yasanib, jilva qilib oldima keldi,

"Borg'il nari!" deb (ketig'a) bir shattalab o'ttum" [4-95].

Muallifning o'ziniki bo'lmagan she'riy parchalardan Omon Muxtor o'z asarlarida juda samarali foydalangan. Ushbu parchalar asarning badiiy jozibasini poetik

ta'sirini oshirgan. Bunday parchalarni manbasiga ko'ra yana ikki guruhga bo'lish mumkin:

- 1. Mumtoz adabiyot namunalari;**
- 2. Zamonaviy adabiyot namunalari.**

Mumtoz adabiyot namunalaridan ko'proq Alisher Navoiy, ba'zi o'rirlarda Nodirabegim, Habibiy ijodiga murojaat qilgan.

Omon Muxtor "Ayollar mamlakati va sultanati" romanida bunday she'riy parchalarni asarga mohirlik bilan singdirib yuborgan.

"*Seni topmoq base mushkuldur-u,*

Topmaslig 'osonkim, –

Erur paydolig 'ing pinhon, vale, pinhonlig 'ing paydo... " [5-94] – Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" devonidan.

"*Iloho! Podshoho! Kirdigoro! –*

Senga ochuq nihon-u, oshkor-o... " [5-95] – Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoni" devonidan.

"FFU" romanidan:

"*Norasolar oqibat bo 'ldi raso mehnat bilan!!!*" [6-64] – Habibiy.

"*Menga ul yor kerak, dunyo kerakmas... "* [6-54] – Nodirabegim.

Zamonaviy adabiyot namunalaridagi she'riy parchalar ham muallifning ijodiy maqsadini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qilgan. Bunda Omon Muxtor **milliy** va **jahon she'rivati** durdonalaridan baravar foydalangan.

Milliy she'rlar:

"*Sevinching toshdi qirg 'oqdan...*

Senga tor keldi bu ko 'krak... " [5-103] – Usmon Nosir.

Jahon she'rivati:

"*Men bunchalik og 'ir ishlarni*

nomus uchun qildim, ammo

alamdan emas!” [5-89] – Uvilyam Shekispirning “Otello” tragediyasidagi ushbu parcha “Ayollar mamlakati va sultanati” romanida qayta qalamga olingan. Ushbu romandagi yana bir qo’shiq:

“Men yorimning qabrin izladim,

Biron yerdan topmadim, ammo.

Sargardonlik bo‘ldi qismatim, -

Qayerdasan, aytgil, Suliko?!” [5-91] – mashhur gurji qo’shig‘i bo‘lib, tarixiy shaxs Stalin tomonidan sevib hirgoyi qilinishi aytib o‘tiladi.

Omon Muxtor romanlarida zamonaviylik va tarixiylik, hayot falsasi, nazm va nasr, uyg‘un holda tasvirlangan. Muallifning asarlari kitobxonga ham estetik zavq, ham tarixiy bilim, adabiy ma’lumotlar va hayotiy haqiqatlarni o‘rgata oladigan darajada mukammal, puxta ishlangan, chuqur bilim va hoyotiy kuzatishlar asosida yozilgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. T.: O‘zbekiston, 2002.
2. Quronov D. “Adabiyot nazariyasi asoslari”. T.: Navoiy universiteti, 2018.
3. Muxtor O. “To‘rt tomon qibla”. T.: Sharq, 2000.
4. Mashrab. “Devon”. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
5. Omon Muxtor “Ayollar mamlakati va sultanati”. T.: Sharq nashriyoti, 1997.
6. uz.m.wikipedia.org